

ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2024

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY





Bosh muharrir: *Namangan davlat universiteti rektori S.T.Turg'unov*

Mas'ul muharrir: *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.N.Ataxanov*

Mas'ul muharrir o'rinbosari: *Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i O.Imomov*

○ **T A H R I R H A Y ' A T I**

Fizika-matematika fanlari: akad. S.Zaynobiddinov, akad. A.A'zamov, f-m.f.d., prof. B.Samatov, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, f-m.f.d., dots. B.Abdulazizov, f-m.f.n., dots. A.Xolboyev.

Kimyo fanlari: akad. S.Nigmatov, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, t.f.d., v.b. prof G'.Doliyev, k.f.n., dots. T.Sattorov, k.f.n., dots. A.Hurmamatov., PhD. D.S.Xolmatov.

Biologiya fanlari: akad. K.Tojibayev, akad. R.Sobirov, b.f.d., prof. A.Batashov, b.f.d., prof. N.Abdurahmonov, b.f.d., prof. F.Kushanov, b.f.d. A.Kuchboyev, b.f.d., dots. D.Dexqonov.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. S.Yunusov.

Qishloq xo'jaligi fanlari: g.f.d., prof. B.Kamalov, q-x.f.n., dots. A.Qazaqov.

Tarix fanlari: akad. A.Asqarov, s.f.d., prof. T.Fayzullayev, s.f.d., prof v.b. N.B. Dexkanov, t.f.d, prof. A.Rasulov.

Iqtisodiyot fanlari: i.f.d., prof. N.Maxmudov, i.f.d., prof.O.Odilov.

Falsafa fanlari: f.f.d., prof. M.Ismoilov, f.f.d. dots. Z.Isaqova, f.f.d., G.G'affarova, f.f.d., dots. T.Ismoilov, PhD. A.Abdullayev.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, PhD. H.Solixo'jayeva, PhD. dots. U.Qo'ziyev, PhD. H. Sarimsoqov, fil.f.d., N.Dosboyeva.

Geografiya fanlari: g.f.d., dots. B.Kamalov, g.f.d., prof. A.Nigmatov, g.f.d., dots. A.Nazarov.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. O'.Asqarova, p.f.n., dots. M.Nishonov, p.f.n., dots. A.Sattarov, p.f.n., dots. M.Asqarova, p.f.n., dots. Sh.Xo'jamberdiyeva, p.f.d., dots. S.Abdullayev, PhD. D.Sarimsakova., PhD. B.Urinov.

Tibbiyot fanlari: b.f.d. G'.Abdullayev, tib.f.n., dots. S.Boltaboyev.

Psixologiya fanlari: p.f.d., prof Z.Nishanova, p.f.n., dots. M.Maxsudova.

Texnik muharrir: *N.Yusupov. Tahririyat manzili: Namangan shahri,*

Boburshox ko'chasi, 161-uy Faks: (0369)227-07-61 **e-mail:** info@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458)ga ega NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2024-yil 11-martdagi kengaytirilgan 10-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 3). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI 2024



ORGANIK KIMYO FANINI O'QITISHDA ELEKTRON TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH

¹Hazratova Dilshoda Azamovna, ²Egamova Azizabonu Shamshod qizi

¹Buxoro davlat universiteti Organik va fizkolloid kimyo kafedrası dotsenti, k.f.f.d., (PhD)

²Buxoro davlat universiteti kimyo yo`nalishi talabasi

e-mail: dilshoda.hazratova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida organik kimyo fanini o'qitishda an'anaviy va noan'anaviy uslublar yordamida o'tilgan darsda o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari muhokama qilingan. Yaratilgan elektron darslik asosida o'quvchilarning bilim olish faoliyatini faol tashkil etish, mustaqil bilim olish ko'nikmasi va malakasini yanada rivojlantirish orqali kimyo fanidan nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish mumkinligi isbotlangan.

Kalit so`zlar: elektron darslik, an'anaviy va noan'anaviy dars, ta'lim samaradorligi

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СРЕДСТВ ЭЛЕКТРОННОГО ОБУЧЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ ОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ

¹Хазратова Дилшода Азамовна, Эгамова Азизабону Шамшод кизи

¹Бухарский государственный университет доцент кафедры органической и физико-коллоидной химии, д.ф.х.н., (PhD)

²студент Бухарского государственного университета по специальности химия

e-mail: dilshoda.hazratova@mail.ru

Аннотация. В данной статье рассматриваются показатели успеваемости учащихся на уроке, проводимом с использованием традиционных и нетрадиционных методов по предмету по органической химии в общеобразовательных школах. На основе созданного электронного учебника доказано, что повысить эффективность теоретической, практической и лабораторной подготовки по химии можно за счет активной организации учебной деятельности учеников, дальнейшего развития навыков и квалификации самостоятельного обучения.

Ключевые слова: электронный учебник, традиционный и нетрадиционный урок, эффективность обучения.

USING E-LEARNING TOOLS IN TEACHING ORGANIC CHEMISTRY

Annotation. This article examines student performance indicators in a lesson conducted using traditional and non-traditional methods in the subject of organic chemistry in secondary schools. Based on the created electronic textbook, it has been proven that the effectiveness of theoretical, practical and laboratory training in chemistry can be increased through the active organization of students' educational activities, further development of skills and qualifications of independent learning.

Key words: electronic textbook, traditional and non-traditional lesson, learning efficiency.




1-rasm. Organik kimyo darsligining ishlatish yo'riqnomasi

Dastur “Adobe Reader”, “Adobe Flash Player” , “Quick Time Player” , “Media Player Classic” dasturlar yordamida ishlaydi. Dasturga kirishda seriya raqami orqali kiriladi va har bir foydalanuvchi ism familiyasi yozilib kiriladi. Foydalanuvchi ism familiyasi yozilgan vaqtda shu nom ostida kompyuterning “C” diskida maxsus foydalanuvchi nomi yozilgan papka yaratiladi. Shu foydalanuvchi olgan natija shu papkada ko'rinadi. Dasturga kirilganda quyidagi ko'rinish paydo bo'ladi.

Yuqoridan birinchi bo'lim ma'ruza, ikkinchi bo'lim taqdimot, uchinchi bo'lim tajriba, to'rtinchi bo'lim test, beshinchi bo'lim glossariy, oltinchi bo'lim dastur yaratilishida foydalanilgan adabiyotlar, so'nggi bo'lim dastur mualliflar haqida ma'lumot.

Birinchi bo'limda organik kimyo fani bo'yicha maktabning o'quv rejasiga mos tayyorlangan maruza qismi hisoblanadi har bir mavzu alohida alohida yozilgan.



2-rasm. Dasturning ma'ruza qismi

2-rasmda ko'rsatilganidek maruza qismida har bir mavzu uchun yetarli ma'lumotlar berilgan, shuningdek, qoshimcha ma'lumotlar ham berilgan. O'quvchi uchun organik kimyo fanidagi har bir mavzuni to'liq tasavvur qilish uchun ma'lumotlar bazasi yaratilgan. Maruza matnlarini oxirida mavzu bo'yicha savollar berilgan. O'quvchi bu savollarga javob topib mavzuni mustahkamlashlari mumkin.

Maruza o'qib tugatilganidan so'ng shu mavzu uchun moslab tayyorlangan test savollarini yechiladi va test natijasi kompyuterda saqlanadi.

Kompetentlikni oshirish uchun har bir mavzu bo'yicha savol qo'yilgan, uning javobi ham kompyuterda saqlanadi.


Ikkinchi bo'limda har bir mavzu yuzasida taqdimotlar tayyorlangan.



3-rasm. Dasturning ma'ruza qismi

O'quvchi ixchamroq malumotga ega bo'lish uchun va mavzuni o'ziga xulosalash uchun taqdimotdan foydalanishi maqsadga muvofiq.


Keyingi bo'lim tajriba bo'limi bo'lib, unda o'quv rejasida berilgan laboratoriya mashg'ulotlari bajarib ko'rsatilgan.



4-rasm. Dasturning tajriba qismi

Har bir maktabda kimyoviy moddalar va reaktivlar yetarli darajada emasligini inobatga olgan holatda bazi kimyoviy tajribalarni bajarib ko'rsatdik.

Test bo'limida umumiy test beriladi. O'quvchi barcha mavzularni o'zlashtirib bo'lgach, shu mavzular yuzasidan tayyorlangan 25 tadan iborat testni yechadi va baholanadi.




5-rasm. Dasturning test va glossariy qismi

Glossariy qismida shu mavzularda ishlatilgan kimyoviy terminlar bo'lib ularga sharhlar berilgan.

Adabiyotlar qismida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shuningdek, Buxdu e-kutubxonaga link berilgan.

Adabiyotlar qismida organik kimyo kitobi 3D shaklda ham joylab qo'yilgan. Kitobni o'qish va undan foydalanish imkoniyati mavjud. Shuningdek, dastur bilan birga ishlaydigan qo'shimcha dasturlar ham berilgan.

Tajriba sinov natijasida ikkita guruh tanlab olindi. Organik kimyo fanini o'qitishda kimyoviy kompyuter dasturlaridan foydalanib o'tilgan darsdan quyidagicha natijalar olindi:



6-rasm. Yuqorida ishlab chiqilgan IED asosida talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari

O'quvchilarda o'tkazilgan tajribada quyidagicha natijalar olindi: ikkita 10-sinf o'quvchilari tanlab olindi. 10-"A" sinf o'quvchilari tajriba sinov guruhi sifatida va 10-"B" sinf o'quvchilari esa nazorat guruhi sifatida tajriba o'tkazildi. Tajriba boshlanishdan oldin o'quvchilarning fanni bilish darajalari test yordamida o'rganildi va va tajriba sinov guruhining natijalari 9 ta o'quvchi "a'lo" bahoda natija ko'rsatdi, 11 ta o'quvchi "yaxshi" natija ko'rsatdi, 6 ta o'quvchi "qoniqarli" natija ko'rsatdi. Nazorat guruhidagi natijalar esa quyidagicha: 4ta o'quvchi "a'lo" bahoda natija ko'rsatdi, 10 ta o'quvchi "yaxshi" natija ko'rsatdi, 9 ta o'quvchi "qoniqarli"

natija ko'rsatdi va 2 ta o'quvchi "qoniqarsiz" natija ko'rsatdi. Dastlabki natijalar bilan solishtirilganda, a'lo baho olganlar soni 16% dan 36% ga oshgan. "4" baho olganlar esa 28 % dan 44% ga oshgan. "3" baho olganlar esa 48% dan 24% ga kamaygan. "2" baho olganlar esa umuman yo'q.

Xulosa

Maktabda organik kimyo darslarida axborot texnologiyalar va elektron ta'limdan uyg'un foydalanish o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning ehtiyoji va qiziqishiga muvofiq bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, o'zini-o'zi nazorat qilish imkonini berdi va bu mustaqil ta'lim samaradorligini oshishida kuzatildi. Yaratilgan №DGU 22397 raqamli "Organik kimyo" elektron darslikning samaradorlik darajasini aniqlash va baholashda pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodlaridan foydalanildi. Maktabda "Organik kimyo" fanini o'qitishda elektron ta'lim vositalari va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishi isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Flipped pedagogy: Strategies and technologies in chemistry education S. Athavan Alias Anand L. 322-332 p.
2. Azamovna H. D. et al. Organik kimyo fanini oqitishda zamonaviy kimyoviy kompyuter dasturlaridan foydalanish //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 815-831.
3. Абдуқодиров А.А. Таълимда инновацион технологиялар. – Тошкент: Истеъдод, 2008. – 180 б.
4. Hazratova D. Organik kimyoda "alkanlarning tuzilishi va izomeriyasi" mavzusini oqitishda zamonaviy kimyoviy kompyuter dasturlaridan foydalanish //центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2023. – Т. 38. – №. 38.

INGLIZ TILINI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA O'RGATISHDA ERTAKLARDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA USULLARI

Israilova Dildora Atxamovna

Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo'jaligini

Mexanizatsiyalash Muhandislari Instituti,

Milliy tadqiqot universiteti, "Ingliz tili" kafedrasida o'qituvchisi

israilovadildora@gmail.com

Annotatsiya. Ertaklar ilk maktabgachagacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'qitishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Bolaning o'z qiziqishlari hamda dunyoqarashi doirasida qiyinchilikka uchramasdan til o'rganishi uning motivatsiyasi davomiy bo'lishini ta'minlaydi. Mazkur maqolada ingliz tilini maktabgacha yoshdagi bolalarga o'rgatishda ertaklardan foydalanish masalalari tahlil va misollar yordamida muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, zamonaviy ta'lim, innovatsion yondashuv, ertak, o'qitish metodikasi, ingliz tili, ta'lim texnologiyasi, dars samaradorligi, motivatsiya.



10	Boshlang'ich sinf matematika darslarida steam texnologiyasini qo'llashning afzalliklari Mamasaidova M., Sobirova S.....	775
11	Chet tilini o'qitishda til kompetensiyalarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari Muxamedjanova S., Beshimov T.....	779
12	Bo'lajak temir yo'l xodimlarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish Kurbanova M.D.....	787
13	Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining nutqiy kompetensiyasini takomillashtirish usullari G'affarova D.V.....	792
14	Improving the skills of rescuers with the help of an innovative interactive simulator Kholdarov A.R.....	796
15	Методы формирования разговорного навыка русским языком посредством онлайн-обучения Ахмедов Ф.Н., Юсупова М.Р., Эльбобо кизи Н.....	801
16	Human economic culture is the need for time to be compatible with the economic culture of society. Ibragimova G.T.....	808
17	Organik kimyo fanini o'qitishda elektron ta'lim vositalaridan foydalanish Hazratova D.A., Egamova A.Sh.....	813
18	Ingliz tilini maktabgacha yoshdagi bolalarga o'rgatishda ertaklardan foydalanishning zamonaviy metodlari va usullari Israilova D.A.....	818
19	Yangi o'zbekistonda inson ekologik muhofazasi institutsional tizimining takomillashtirilishi Hakimov N.H., Muxiddinova H.....	823
20	Kompotentlik, geografik kompotentlik va grafik kompotentlik tushunchalarining talqin etilishi va sifatleri Jo'rayeva Sh.A., Jo'raxo'jayev T.X.....	829
21	Talabalarda raqamli texnologiyalar asosida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish Abdullayeva O.S., Muxammadjonov A.O.....	836
22	Voleybol vositalari yordamida talabalarning kasbiy ko'nikmalar va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish Arabov E.O.....	841
23	Authentic materials in teaching english in non-philological educational institutions Kholiyorov B.....	847
24	Internetning ijtimoiy hayotga ta'siri Karimov U.D.....	853
25	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematikaga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish G'ofurova M.A.....	859